




***Mavzu:* Iqtisodiy islohotlar
sharoitida ishlab chiqarish
kuchlarini joylashtirish va
rivojlantirishning omillari va
tamoyillari**



REJA:



1. Ishlab chiqarish jarayoni haqida tushuncha
2. Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi
3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari va tamoillari
4. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari
5. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari



Ishlab chiqarish haqida tushuncha

Ishlab chiqarish - jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy ne'matlarni yaratish jarayonidir.

Ishlab chiqarish jarayoni 3 element – mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'lishini taqozo etadi.



Ijtimoiy ishlab chiqarish



Ijtimoiy ishlab chiqarish – jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'ladigan ne'matlarni yaratishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmuidir. Bu faoliyat natijasida yalpi milliy mahsulot, shu jumladan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad ishlab chiqariladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish yaratilgan ne'matlarning kishilar ehtiyojlarini qondirish xususiyatlariga ko'ra moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga bo'linadi.



Ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibi

Ijtimoiy ishlab chiqarish uch tarkibiy qismdan iborat. *Bular:*

- ishlab chiqarish;
- taqsimot;
- iste'mol.



Ishlab chiqarish kuchlari

Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom ashyo va h.k.), sanoat va qishloq xo'jaligi hamda mehnat resurslarini o'z ishiga oladi.



Mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi

Mehnat taqsimoti – mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi, mehnat turlarining ixtisoslashuvi.



Ixtisoslashuv

Ixtisoslashuv - ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga moslashuvidir.





Mehnat taqsimoti

**Ijtimoiy mehnat
taqsimoti**

**Hududiy mehnat
taqsimoti**

Hududiy mehnat taqsimotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

- Tabiiy sharoit va qazilma boyliklar;
- Aholi va mehnat resurslari;
- Transport;
- Infrastruktura;
- Ekologik vaziyat;
- Iqtisodiy geografik o'rin;
- Bozor manfaatlari va h.k.



Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari

1. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati
2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qonuniyati
3. Hududlarning kompleks rivojlanish qonuniyati
4. Ishlab chiqarishni hududiy bir me'yorda joylashtirish yoki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati.



Ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy tamoillarni:

- ishlab chiqarishni xomashyo, yoqilg'i, energiya va mahsulot iste'moli hududlariga yaqinlashtirish;
- tabiiy resurslarni eng samarali turlarini birinchi navbatda o'zlashtirish va ulardan majmuali foydalanish;
- mamlakat hududlari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish;
- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan samarali foydalanish va h.k.



Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari

Ijtimoiy shakllari

Konsentratsiyalashuv
(mujassamlashuv)

Ixtisoslashuv

Kooperatsiyalashuv
(hamkorlik)

Kombinatlashuv

Hududiy shakllari

Sanoat tugunlari va rayonlari

Iqtisodiy rayonlar

Hududiy ishlab chiqarish
majmualari

Erkin iqtisodiy zonalar

Ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari

Konsentratsiyalashuv (mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning markazlashuvi) – iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli bo'lib, u geografik jihatdan avvalo, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ya'ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi.



Ixtisoslashuv - ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga moslashuvidir.

Ixtisoslashuvning uch bosqichi mavjud:

- korxonada
- shaharda
- rayon (mamlakat) miqyosidagi ixtisoslashuv;

Uch turi:

- qism (detal)
- texnologik yoki yarim tayyor mahsulot,
- predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ga ixtisoslashuv.



Kooperatsiyalashuv - muayyan bir mahsulot yaratishda turli korxonalar o'rtasidagi hamkorlikdir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Kooperatsiyalashuvda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq.



Kombinatlashuv -
kooperatsiyalashuvga o'xshab,
korxonalar birlashmasidan
iborat, ammo bu yerda tarqoq
holda joylashgan birlik emas,
balki ularning hududiy
umumiyligi, texnologik va
tashkiliy birligi tushuniladi.



Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari

-tabiiy sharoit va agroiklimiy resurslar;
xom ashyo;
elektr energetika;
aholi va mehnat resurslari;
transport;
ilmiy-texnika taraqqiyoti;
ekologiya;
bozor iqtisodiyoti omili;
infratuzilma va h.k.



Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang

Omillar Tarmoqlar	Tabiiy sharoit va agroiqilniy resurslar	Xom ashyo	Elektr energetika	Aholi va mehnat resurslari	Transport	Ilmiy-texnika taraqqiyoti	Ekologiya	Bozor iqtisodiyoti	Infratuzilma	Boshqa omillar
Qishloq xo'jaligi										
dehqonchilik										
chorvachilik										
Sanoat										
- tog' -kon										
- o'rmon										
- baliqchilik										
- oziq-ovqat										
- yengil sanoat										
- mineral o'g'itlar ishlab chiqarish										
- rangli metallurgiya										
- qora metallurgiya										
- yoqilg'i										
- issiqlik elektr stansiyalari										
- gidroelektr stansiyalari										
- avtomobilsozlik										
- elektrotexnika										
- yuqori texnologiyali ishlab chiqarish										
- kimyo sanoati										
- sellyuloza-qog'oz sanoati										
Transport										
- avtomobil										
- temir yo'l										
- quvur										
- havo										
- suv										

Izoh: Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ta'sir darajasiga ko'ra quyidagi tarzda belgilang:

- hal qiluvchi ta'sirga ega +++
- muhim ta'sir ko'rsatadi ++
- ta'siri kuchli emas (joylashtirishda hisobga olinadi) +
- joylashtirishda hisobga olinmaydi -

***ЭЪТИБОРИНГИЗ
УЧУН
РАХМАТ!***

